<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari.....	714
<i>Aslanova Malohat Akramovna</i>	
Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida.....	718
<i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish	721
<i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>	
Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин)	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	
Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar.....	775
<i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>	
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili	780
<i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>	
Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari	784
<i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>	
Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish.....	789
<i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>	
Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri...	793
<i>M. B. Pulatova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili	796
<i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari.....	801
<i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>	



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Quadrat qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	

TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI (PEDAGOGIK OTM MISOLIDA)

Begmatova Dildora Saydaliyevna

BUI, Pedagogika tarixi va nazariyasi yo'nalishi 2-kurs magistri

Ilmiy rahbar: N.R. Rustamova

PhD, ISFT instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarning nazariy, pedagogik va psixologik asoslari kompleks tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimining globallashtirish, raqamlashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanishi sharoitida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda klassik pedagogik nazariyalar (Komenskiy, Ushinskiy), psixologik yondashuvlar (Vigotskiy, Leontyev) hamda zamonaviy innovatsion ta'lim konsepsiyalari integratsiyalashgan holda ko'rib chiqiladi. Eksperimental tahlillar natijasida innovatsion yondashuvlar talabalarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ kompetensiya va mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijasida pedagogik-psixologik model ishlab chiqildi hamda uni amaliyotga joriy etish mexanizmlari taklif etildi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiyalar, psixologik omillar, kompetensiya, oliy ta'lim.

Abstract: This study provides a comprehensive analysis of the theoretical, pedagogical, and psychological foundations of innovative approaches in pedagogical higher education institutions. In the context of the modern education system's development, which is closely linked with globalization, digitalization, and competency-based approaches, the necessity of implementing innovative pedagogical technologies is substantiated. The study integrates classical pedagogical theories (Comenius, Ushinsky), psychological approaches (Vygotsky, Leontiev), and modern concepts of innovative education. The results of experimental analysis indicate that innovative approaches are highly effective in developing students' critical thinking, creativity, communicative competence, and independent learning abilities. As a result of the research, a pedagogical-psychological model was developed, and mechanisms for its implementation in practice were proposed.

Key words: innovative education, pedagogical technologies, psychological factors, competence, higher education.

Аннотация: В данном исследовании проводится комплексный анализ теоретических, педагогических и психологических основ инновационных подходов в педагогических высших учебных заведениях. В условиях развития современной системы образования, тесно связанной с глобализацией, цифровизацией и компетентностным подходом, обосновывается необходимость внедрения инновационных педагогических технологий. В исследовании интегрированно рассматриваются классические педагогические теории (Коменский, Ушинский), психологические подходы (Выготский, Леонтьев), а также современные концепции инновационного образования. Результаты экспериментального анализа показали, что инновационные подходы обладают высокой эффективностью в развитии критического мышления, креативности, коммуникативной компетенции и способности к самостоятельному обучению у студентов. В результате исследования была разработана педагогико-психологическая модель и предложены механизмы её внедрения в практику.

Ключевые слова: инновационное образование, педагогические технологии, психологические факторы, компетенция, высшее образование.

KIRISH

Bugungi zamon – bu tezlik zamoni. Kecha yangilik bo'lgan narsa bugun eskiradi. Ta'lim esa – bu jamiyatning yuragi. Agar yurak eskicha urib qolsa, organizm ham uzoqqa bormaydi. Shu sababli ta'lim tizimini innovatsion asosda qayta qurish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir ^[1].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilimlar hajmi geometrik progressiya bilan ortib bormoqda. Bu esa an'anaviy ta'lim modelining chegaralarini ochiq ko'rsatib qo'ydi. Endilikda faqat bilim berish yetarli emas – talaba mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi va yangi vaziyatlarda bilimni qo'llay olishi kerak ^[2].



O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ta'lim va ilm-fan davlat taraqqiyotining asosiy omilidir ^[3]. Bu esa pedagogik yondashuvlarni tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – pedagogik OTMLlarda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlash va ularning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion ta'lim g'oyalari yangi hodisa emas, balki ularning ildizlari pedagogika tarixining chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Ta'limni tizimli tashkil etish masalasi ilk bor buyuk pedagog Y.A. Komenskiy tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, u o'zining didaktik qarashlarida o'qitish jarayonini bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etish zarurligini ta'kidlagan ^[4]. Ushbu prinsip bugungi zamonaviy didaktika tizimida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, o'quv materialini mantiqiy izchillikda berish orqali bilimlarning chuqur va barqaror o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Pedagogika tarixida muhim o'rin egallagan yana bir olim K.D. Ushinskiy ta'lim jarayonini inson psixologiyasi bilan uzviy bog'lab o'rganish zarurligini asoslab bergan ^[5]. Uning fikricha, ta'lim faqat bilim berish emas, balki shaxsning ongli faoliyatini rivojlantirish jarayoni bo'lib, o'quvchi bilimni tushunib, anglab va ongli ravishda o'zlashtirishi lozim. Bu yondashuv bugungi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Psixologik yondashuvlar doirasida L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi ^[6]. Mazkur nazariyaga ko'ra, ta'lim rivojlanishdan ortda qolmasligi, balki uni oldinga yetaklashi kerak. Ya'ni, o'quvchi mustaqil bajara olmaydigan, ammo pedagog yoki tengdoshlar ko'magida uddalay oladigan vazifalar orqali uning intellektual salohiyati rivojlanadi. Ushbu yondashuv bugungi kunda hamkorlikda o'qitish, differensial ta'lim va rivojlantiruvchi ta'lim tizimlarining metodologik asosini tashkil etadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa A.N. Leontyev tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u bilimlarning faqat faoliyat jarayonida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan ^[7]. Uning nazariyasiga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni amaliy va aqliy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Bu esa zamonaviy ta'limda muammoli o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim bugungi kunda bir nechta asosiy yo'nalishlar asosida rivojlanmoqda. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv talabalarning faqat bilim emas, balki amaliy ko'nikmalar va hayotiy kompetensiyalarni egallashiga qaratilgan. Konstruktivistik ta'lim esa bilimni tayyor shaklda berish emas, balki uni o'quvchining o'zi tomonidan faol ravishda "qurish" jarayoni sifatida talqin qiladi. Raqamli pedagogika ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish orqali yangi imkoniyatlar yaratadi. Blended learning, ya'ni aralash ta'lim modeli esa an'anaviy va elektron ta'limning uyg'unlashuvi orqali yanada samarali o'quv muhitini shakllantiradi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari innovatsion yondashuvlarning yuqori samaradorligini tasdiqlamoqda. Xususan, bunday yondashuvlar talabalarning darsdagi faolligini o'rtacha 30–40 foizga oshirishi, shuningdek, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlangan ^[8]. Bu esa innovatsion ta'limning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompleks yondashuv asosida tashkil etilib, unda bir-birini to'ldiruvchi ilmiy metodlar tizimidan foydalanildi. Avvalo, nazariy tahlil metodi orqali mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar chuqur o'rganildi, mavjud pedagogik va psixologik konsepsiyalar tizimli ravishda tahlil qilindi hamda umumlashtirildi. Bu bosqich tadqiqotning metodologik asoslarini shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv metodi yordamida oliy ta'lim muassasalaridagi real o'quv jarayoni tahlil qilindi, darslarda qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarning samaradorligi o'rganildi. Kuzatuv natijalari ta'lim jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini asoslash imkonini berdi. Tadqiqotning muhim bosqichi sifatida eksperimental sinov tashkil etildi. Ushbu jarayonda innovatsion yondashuvlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri amaliy jihatdan tekshirildi.

Eksperimentni qo'llab-quvvatlash maqsadida so'rovnoma metodi ham qo'llanilib, talabalar va o'qituvchilarning innovatsion ta'limga bo'lgan munosabati, motivatsiyasi va qoniqish darajasi aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar esa statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi va aniqligi ta'minlandi. Tadqiqot obyekti sifatida pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari tanlab olindi. Eksperiment davomida

ikki turdagi guruh shakllantirildi: nazorat guruhi, unda ta'lim an'anaviy metodlar asosida olib borildi, va tajriba guruhi, unda innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni joriy qilindi. Bunday taqqoslama yondashuv innovatsion metodlarning samaradorligini aniqroq baholash imkonini berdi. Tajriba jarayonida zamonaviy innovatsion pedagogik metodlar kompleks tarzda qo'llanildi. Xususan, loyiha asosida o'qitish orqali talabalar mustaqil izlanish olib borish, muammolarni hal qilish va amaliy natijaga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirishga jalb etildi. Interaktiv metodlar yordamida dars jarayonida talabalar o'rtasida faol muloqot va hamkorlik muhiti yaratildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari esa ta'lim jarayonini raqamlashtirish, vizual va interaktiv imkoniyatlarni kengaytirish hamda mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, reflektiv tahlil metodi orqali talabalar o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarning ta'lim jarayoniga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etdi. Olingan ma'lumotlar nafaqat statistik jihatdan ahamiyatli, balki pedagogik nuqtai nazardan ham muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi. Avvalo, talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Tajriba guruhida darslarda ishtirok etish darajasi nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 35 foizga yuqori bo'ldi. Bu natija innovatsion metodlarning talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish imkoniyatini ko'rsatadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi ham muhim natijalardan biri bo'ldi. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda talabalar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va qaror qabul qilishda ancha faol ishtirok etgani aniqlandi. Bu esa ularning analitik tafakkuri va muammolarni hal qilish kompetensiyasining rivojlanganligini ko'rsatadi.

Motivatsiya darajasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi-dagi talabalar o'qishga tashqi rag'bat (baho) uchun emas, balki ichki ehtiyoj va qiziqish asosida yondasha boshlagan. Ichki motivatsiyaning ortishi esa ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, innovatsion ta'lim jarayonida talabalarning asosiy kompetensiyalari ham rivojlanganligi aniqlandi. Xususan, 4K kompetensiyalari – tanqidiy fikrlash (critical thinking), ijodkorlik (creativity), muloqot (communication) va hamkorlik (collaboration) – tajriba guruhida sezilarli darajada shakllangan. Ushbu kompetensiyalar zamonaviy ta'limning asosiy natijaviy ko'rsatkichlari sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot davomida psixologik muhit ham alohida e'tibor markazida bo'ldi. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslarda talabalar o'zlarini erkin va ishonchli his qilgani, fikr bildirishdan qo'rqmasligi va faol muloqotga kirishgani kuzatildi. Bu esa dars jarayonida ijobiy psixologik muhit shakllanganini va o'quv faoliyatining samaradorligi oshganini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarning nafaqat bilim berish samaradorligini oshirish, balki shaxsiy rivojlanish, motivatsiya va psixologik holatga ham kompleks ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim bugungi kunda vaqtinchalik tendensiya yoki modaga aylangan yondashuv emas, balki ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhim omildir. An'anaviy ta'lim modelida o'qituvchi markaziy figura sifatida namoyon bo'lib, bilim asosan uning tomonidan uzatiladi, talaba esa ko'proq passiv qabul qiluvchi rolini bajaradi. Bunday yondashuvda o'quv jarayoni bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, talabaning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyati yetarli darajada rivojlanmaydi. Innovatsion ta'lim modelida esa ushbu paradigma tubdan o'zgaradi: talaba ta'lim jarayonining markaziga chiqadi, o'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va fasilitator rolini bajaradi. Bu o'zgarish oddiy metodik yangilanish emas, balki ta'limga bo'lgan yondashuvning, ya'ni pedagogik tafakkurning va mentalitetning o'zgarishini anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, innovatsion ta'lim jarayonida ichki motivatsiyaning ustuvorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar tashqi nazorat yoki baholashdan ko'ra, o'z ichki qiziqishi va ehtiyoji asosida o'qiganida bilimni chuqurroq va barqarorroq o'zlashtiradi. Shuningdek, ijobiy psixologik muhit – ya'ni ishonch, qo'llab-quvvatlash va erkin fikr bildirish imkoniyati mavjud bo'lgan ta'lim makoni – o'quv faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Pedagogik jihatdan esa innovatsion yondashuvlar o'qitish jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar talabalarni faol ishtirok etishga, muammolarni birgalikda hal qilishga va bilimni amaliy jihatdan qo'llashga undaydi ^[9]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa ta'limni individuallashtirish, ya'ni har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini yaratadi.

Biroq, innovatsion ta'limni joriy etish jarayoni qator muammolar bilan ham bog'liq. Jumladan, ayrim o'qituvchilarda an'anaviy yondashuvlarga haddan tashqari bog'lanib qolish, ya'ni pedagogik konservatizm kuzatiladi ^[10]. Bundan tashqari, moddiy-texnik resurslarning yetishmasligi hamda innovatsion metodlarni qo'llash bo'yicha metodik tayyorgarlikning yetarli emasligi jarayonni murakkablashtiradi.



Umuman olganda, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati inkor etilmaydi, biroq uni samarali amalga oshirish uchun nafaqat metod va texnologiyalarni yangilash, balki pedagoglarning fikrlash tarzini, kasbiy yondashuvini va ta'lim madaniyatini ham tubdan o'zgartirish talab etiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari asosida bir qator muhim ilmiy xulosalarga kelindi. Avvalo, innovatsion ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas va zarur tarkibiy qismi ekanligi asoslandi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta'limni an'anaviy shaklda tashkil etish yetarli emasligi, balki uni yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Shuningdek, pedagogik va psixologik omillarning o'zaro integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Ta'lim faqat metod va texnologiyalar majmui emas, balki insonning ichki dunyosi, motivatsiyasi va psixologik holati bilan chambarchas bog'liq jarayon ekanligi isbotlandi. Shu bois, innovatsion ta'limni samarali tashkil etishda pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda psixologik qonuniyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida innovatsion metodlarning talabalarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli ham alohida e'tirof etildi.

Xususan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi ko'nikmalar innovatsion yondashuvlar orqali samarali rivojlanishi aniqlandi. Bu esa zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni tobora ortib borayotgani va ular ta'limni yangi bosqichga olib chiqayotgani asoslandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limni individuallashtirish, masofaviy va aralash ta'limni tashkil etish, shuningdek, o'quv jarayonini interaktiv va samarali qilish imkoniyati kengaymoqda.

Umuman olganda, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion yondashuvlar hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajak ta'limi esa bilim, tafakkur, texnologiya va shaxsning uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu to'rt komponent o'zaro integratsiyalashgan holda ta'lim jarayonida qo'llanilgandagina haqiqiy, samarali va barqaror ta'lim tizimi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toffler, A. (1980). *The Third Wave*. New York: Bantam Books.
2. Schumpeter, J. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston.
4. Comenius, J. A. (1975). *Didactica Magna*. Tashkent: O'qituvchi.
5. Ushinsky, K. D. (1988). *Pedagogik asarlar*. Moscow: Pedagogika.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.
7. Leontiev, A. N. (1975). *Activity, Consciousness, Personality*. Moscow: Politizdat.
8. OECD. (2023). *Education at a Glance*. Paris: OECD Publishing.
9. World Bank. (2024). *Digital Skills and Education Reform*. Washington, DC.
10. UNESCO. (2022). *Innovative Pedagogy for the 21st Century*. Paris.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.